



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-yanvar

43-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2025-yil 22-yanvardagi 30-son qarori ijrosi haqida”gi 37-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas‘uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi PF-80-sonli, “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son farmonlari, shuningdek, “Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va mahalliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 7-avgustdagi PQ-286-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2025-yil 22-yanvardagi 30-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-yanvardagi 37-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2025-yil 22-yanvardagi 30-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-yanvardagi 37-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-yanvardagi 30-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi:

maxsus iqtisodiy zona hududida investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun elektron-onlayn auksion savdolari g‘olibi bo‘lgan yuridik shaxslar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal orqali maxsus iqtisodiy zonaning ishtirokchisi maqomini olish uchun qayta davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini amaliyotga tatbiq etishi;

yuridik shaxsni qayta davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda soliq va kadastr ma‘lumotlar bazalaridan qat’iy foydalanishi;

O‘zbekiston Respublikasiga sanoat sohasidagi nufuzli xalqaro brend mutaxassislarini jalb qilishda yig‘im undirilishidan ozod etish;

milliy brendlarni yaratish uchun jalb qilinadigan xorijiy mutaxassislarning O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnomalarni berish tartibini soddalashtirish ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov